



**NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALARNI MAKTABGA  
PSIXOLOGIK TAYYORLASH TAMOYILLARI VA USULLARI**

*Abdulxamidova Gulnoza Nasriddin qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*“Kreativ pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchi-stajyori*

*Bekmuradova Gulsanam Ixtiyor qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Maxsus pedagogika (logopediya) yo‘nalishi*

*3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Bu maqolada nutq nuqsonlari bo'lgan bolalarni maktabda ta'lim olishlariga psixologik tomondan tayyorlash mavzusi yoritilgan. Bolalarning bilish jarayoni, xissiy-irodaviy holati va ijtimoiy moslashuvi haqida so'z boradi. Bundan tashqari ularni maktabga tayyorlashda qo'llaniladigan asosiy metodlar haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar.** Nutq nuqsoni, psixologik tayyorlov, maktabgacha tayyorlov, logopediya, diqqat, xotira, tafakkur, ijtimoiylashuv, individual yondashuv, korreksion ishalar.

Kirish. Maktabda ta'lim olish bolalar hayotining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun bu favr juda murakkab favrlardan hisoblanadi. Chunki nutq kamchiliklari bolalarning nafaqat muloqotiga balki psixologik rivojlanishiga xam o'z ta'sirini ko'rsatadi. Nutq nuqsonlari bo'lgan bolalarda ko'pincha diqqat yetishmovchiligi, xotirani pasayishi, tafakkurning sekin rivojlanishi va oziga bo'lgan ishonchni kamligi kuzatiladi. Shu bois nutq nuqsoniga ega bolalalarni maktabga tayyorlash muhim ishlardan hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Xar bir bolaning nutq darajalari, psixik rivojlanishi darajalari turlicha bo'ladi. Shu sababli xar bir bolaga aloxida yondashuv va e'tibor muhim ro'l o'ynaydi.



Bolalarni holatidan kelib chiqib mashg'ulotlar olib boriladi. Bolaning hulqi o'zini tutishi ustida ishlab maktabga tayyorlanadi. Xozirgi kunga kelib bolalar bilan individual ishlab ulardagi bilim saviya rivojlanish darajalari ortib bormoqda. Shu sababdan nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda rejali va bosqichma – bosqich oddiydan boshlab murakkab mashg'ulotlar olib boriladi. Har birining nutqi ustida ishlab o'qish jarayonida tengdoshlaridan qolmagan holda o'ziga ishonchini ko'paytirgan holda ishlash maqsadga muvofiq. Rasmlar, kartochlar va ko'rgazmalardan foydalanib tushunarli tarzda mashg'ulotlarni mustahkamlab borish, bolaga nisbatan mehribon bo'lish va qo'llab -quvvatlash muhitini yaratish bolaning kelajakda o'ziga ishonchini yuqori bo'lishiga yordam beradi.

Nutqida kamchiligi bo'lgan bolada ko'p hollarda o'ziga bo'lgan ishonchi past bo'ladi bundan tashqari ularda tortinchoqlik, muhitga moslashuvchanlik va fiqrat va xotira sustroq bo'ladi. Shu sababdan pedagog, logoped va boshqa mutaxassislar ota-onalar birgalikda ish olib borishlari natijaga tezroq yetkazadi. Bunday bollarni tez-tez maqtab rag'batlantirib turish ulardagi ishonchni ortishiga yordam beradi.

Nutq nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik qo'llab -quvvatlash juda zarur. Bu bilan ulardagi tushkunlikni bartaraf etish stress is kamaytishga erishish mumkin. O'yinlar orqali hikoya tuzish, ertak aytish, rasmlar asosida mashg'ulot olib borish, mantiqiy topshiriqlar xotira o'yinlari orqali diqqatni rivojlantirish, xotirani yaxshilash va nutqning tushunarli bo'lishiga erishish mumkin.

**Xulosa** qilib shuni ayta olamanki nutqida nuqsoni bor bolalarni maktabga tayyorlash murakkab lekin muhim jarayondir. To'g'ri tashkil etilgan mashg'ot va yondashuvlar, psixologik qo'llab -quvvatlash orqali bolani maktab muhitiga tezroq moslashtira olamiz. Bunda xar bir pedagog va mutaxassislarga tuganmas bilim kuch -quvvat, sabr va matonat doim birga bo'lsin deymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Logopediya kitobi M. Ayupova Toshkent-2007.
2. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish R. Shomaxmudova. L. Mominova <LESSON PRESS> 2015.



3. ABDULKHAMIDOVA, G. DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVE CITIZEN COMPETENCES IN HEARING DISABLED STUDENTS. СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука", 15-16.

4. EDUCATION, S. I. I. I. INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA NUTQIDA NUQSONI BO 'LGAN O 'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH.